

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 255 (1316), 2024-yil 17-dekabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING ENG MUHIM VA HAL QILUVCHI BOSQIHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta’minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda banklar faoliyati mahallagacha tushirilgani o‘z natijasini beryapti. Xususan, Namangan viloyati Uychi tumanida banklar 3 ming 200 ta faol mijoz bilan ishlash, ularga yordam bergani uchun 9 ming odam doimiy ishli bo‘ldi. Kambag‘allar soni 6 mingga kamaydi.

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 3 ming 200 ta xonadonda loyihalar ishga tushirildi, 12 ming odam o‘z tomorqasida daromad topishni o‘rgandi.

Jizzax viloyati Zarbdor tumanida 13 ming 500, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida 28 ming ish o‘rni yaratildi. Bularning hisobiga qo‘shimcha 10 mingdan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqarildi.

Umuman, mazkur 4 ta tuman — Uychi, Sayxunobod, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari doirasida yil boshidan buyon 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo‘lgan. Jami rasman band bo‘lganlar ilk bor 10 million 500 ming nafarga yetgan.

Bundan tashqari, Xo‘jayli, Asaka, Vobkent, Bulung‘ur, Yangiyer, Qo‘shitepa, Shovot kabi 57 ta tumanda ishsizlik 5 foizdan pasaygan.

Markaziy bank va joylardagi banklar bu ijobiy tajribalarni kengaytirib, xalqqa madad bo‘lishi zarurligi ta’kidlanadi.

— 2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda shu boradagi yangi imkoniyatlar va rejalarni ko‘rib chiqildi.

Oxirgi 6-yilda oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 750 ming aholi kreditini vaqtida qaytarib, daromadli biznesga ega bo‘lgan. Ulardan 58 mingi yangi korxonaga ham o‘chgan. Endi banklar mana shunday sinovdan o‘tgan mijozlarini qo‘llab-

quvvatlab, kichik va o‘rta biznes darajasiga olib chiqish zarur.

Shu bois, ularga “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash” dasturi doirasida shartsiz 300 million so‘m kredit beriladi. Bu orqali kelgusi yillarda 1,5 million aholi ishli bo‘ladi.

Ilgari banklar oilaviy tadbirkorlik dasturlariga mablag‘ni faqat davlatdan olgan. Xalq banki tashabbus ko‘rsatib, Osiyo taraqqiyot banki bilan “Moliyaviy ommaboplik” dasturi doirasida 50 million so‘mgacha ortiqcha hujjat va garovsiz kredit beryapti. Ushbu namuna asosida kelgusi yil 9 ta davlat banki 1 milliard dollar kredit berib, 250 ming aholini daromadli qilishi mumkinligi aytiladi.

Faol tadbirkorlar ishtirokida 27 ta tumanda ochilgan kooperatsiyalar yaxshi samara beryapti. Kelasi yil 30 ta tumanda baliqchilik, qaynoqchilik, chorvachilik va asalarichilik bo‘yicha shunday kooperatsiyalar tashkil qilinadi. Bunga 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Ham investitsiya olib keladigan, ham ko‘p ish o‘rni yaratadigan startap loyihalari qo‘llab-quvvatlanadi. Buning uchun davlat banklari venchur kompaniya tuzib, mahalla startaplari o‘z mablag‘idan jami 50 million dollar ajratadi. Har bir bank xususiy sherik topib, startaplarni biznesga aylantiradigan akseleratorlar ochadi.

Yig‘ilishda og‘ir tumanlarda ishsizlikni kamaytirish masalasiga alohida yondashildi. Ularga boshqa hududlardan tajribali tadbirkorlar jalb qilinib, loyihalari uchun yengil kreditlar hamda infratuzilmasiga qo‘shimcha mablag‘ ajratiladi.

Bu 1 million 300 ming aholini daromadli qilish imkonini beradi.

Davlat infratuzilma qilib bersa, tadbirkorlar qo‘shimcha 31 trillion so‘mlik 3,5 mingga loyiha va 200 mingga yangi ish o‘rni tashkil etish tashabbusini bildirgan. Kelgusi yilda ushbu loyihalar infratuzilmasiga 1 trillion so‘m ajratilishi belgilandi.

Yana bir tahlil: 85 ming gektar yerda kam daromadli ekin ekilgani sababli samaradorlik pastligicha qolmoqda. Shu bois, bunday yerlar yirik konturga birlashtirilib, yetakchi tadbirkorlarga ikkilamchi ijaraga beriladi. Yer egasiga ijaraga haqi va mahsulotni sotishdan ulush to‘lanadi. Ekin ekmagani aholiga yerini boshqasiga ikkilamchi ijaraga berish haqida majburiy talabnoma kiritiladi. Kelasi yil taqsimlanadigan 100 ming gektar yer ham shu tartibda ajratiladi.

60 ta ilg‘or shahar-tuman ishsizlik va kambag‘allikdan xoli bo‘lish imkoniyatiga ega. Buning uchun kelgusi yilda ulardagi 2 million aholini band qilib, 417 mingga oilani kambag‘allikdan olib chiqish zarurligi qayd etildi.

Bu maqsadlarga erishish uchun banklar moliyaviy mustahkam bo‘lishi kerak. Shu bois, faqat davlat beradigan pulga bog‘lanib qolmasdan, tashqi manbalardan 6 milliard dollar jalb qilish muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, kelasi yili aholi omonatlarini 11 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Huquqiy asos yaratilgan bo‘lsa, bu yil 5,5 trillion so‘mlik mikromoliya va faktoring xizmatlari ko‘rsatilgan. Bu asosdan foydalanib, endi davlat banklari ham o‘zining mikromoliya va faktoring kompaniyasini ochishi, unga xorijiy investorlarni jalb qilishi mumkin.

Yig‘ilishda banklar oldidagi muammolar ham tahlil qilinib, hal qilish choralari ko‘zda tutiladi.

Masalan, banklar balansida 3 mingga harakatsiz mullar bor. Ular sotilsa, qo‘shimcha resurs va 150

mingta ish o‘rni uchun zaxira paydo bo‘ladi. Shu bois, banklarga harakatsiz mullarni bozor qiymatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishga ruxsat berilishi belgilandi.

Kredit qarzi hisobidan garovni sud orqali undirishga ham ko‘p vaqt sarflanmoqda. Shuning uchun bu boradagi qonunchilikni o‘zgartirish, unda garovga nisbatan bank huquqlari ustuvorligini hamda undiruvga qaratilgan mullar tezroq sotilishini nazarda tutish zarurligi aytiladi.

Hokimliklar bilan banklarning mahallalarda muvofiq ishlash tizimi ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda tuman hokimlari loyihani joy va infratuzilma bilan ta’minlash majburiyatini oladi, banklar esa tadbirkorlar loyihalariga ko‘maklashadi, muammosi bo‘lsa, hal etadi, ishsizlarni biznesga jalb qiladi.

Shu maqsadda mahalla banklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi. Ular mahallaning biznes imkoniyatlarini o‘rganadi, odamlarning g‘oyalari va qobiliyatini loyihalarga aylantiradi. Aholiga moliyaviy tartiblarni, mahsulot va xizmatlarini sotishni o‘rgatadi, loyihalarga hamrohlik qiladi.

Umuman, jahon iqtisodiyotidagi bugungi murakkab sharoitda moliya-bank tizimining barcha darajalarida moliyaviy intizom va shaxsiy mas‘uliyatni kuchaytirish muhimligi ta’kidlanadi.

Yig‘ilishda hokimlar va bank rahbarlari 2025-yilda 5 milliondan ziyod aholini daromadli qilish, 1,5 million aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etdi. Muloqotda hududlardagi ijobiy tajribalar, mutasaddilarning axborotlari eshitildi.

O‘ZA

## XALQARO TURIZM MARKAZI JOZIBADOR MASKAN BO‘LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida qurilishi mo‘ljallangan xalqaro turizm markazi taqdimoti bilan tanishdi.

Dunyo bilan aloqalar kengayib, infratuzilma rivojlangani sari mamlakatimizning turizm salohiyati ham oshmoqda. Shunday jozibador maskanlardan biri, shubhasiz, Bo‘stonliq tumani. Chorvoq suv ombori va daryolari, qorli tog‘lari, xushmanzara daraxtzorlari bois, bu yerda yilning barcha faslida maroqli hodiq chiqarish mumkin.

Davlatimiz e‘tibori bilan so‘nggi yillarda Bo‘stonliqda ko‘plab yangi majmualar barpo etildi, “Amirsoy”, “Beldirsoy-Chimyon-Nanay” kurorti kabi loyihalar amalga oshirildi. Xususan, so‘nggi besh yilda 2 trillion so‘mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ziyod o‘ringa ega 59 ta yangi turizm inshooti ishga tushirildi.

Bunday natijalar chet ellik investorlarni o‘ziga tortmoqda, yanada katta miqyosdagi loyihalarga yo‘l ochmoqda. Jumladan, ozarbayjonlik ishbirovi Emin Agalarov bir qator yirik xorijiy kompaniyalar bilan sherkatlikda Chorvoq suv ombori bo‘yida

“Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazi barpo etish istagini bildirmoqda.

Loyihaga ko‘ra, markazda dam olish, cho‘milish va sport maskanlari, mehmonxonalar, kottejlar, turar joylar bo‘ladi. Xalqaro brendlarning do‘konlari, restoran va xizmat shoxobchalari ochiladi. Turli festivallar, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlar o‘tkaziladi. Ikki qirg‘oq o‘rtasida ko‘priklar qurilib, keluvchilarga qulaylik oshiriladi. Kelajakda mazkur markaz o‘ziga xos turizm xabiga aylanib, unda yil davomida dam olish va yashash mumkin bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari bu taklifni ma‘qullab, uni xalqaro tajriba asosida loyihalashtirish va bosqichma-bosqich qurish zarurligini ta’kidladi. Bosh vazir boshchiligidagi komissiya tuzib, loyihaning huquqiy asosini yaratish, infratuzilma masalalarini hal etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

### Nuqtayi nazar

## IJTIMOY HIMOYA TAMOYILI

MANZILLI ISHLAR TUFAYLI IJTIMOY XIZMAT VA YORDAM BO‘YICHA MUHOJAATLAR 35 FOIZ KAMAYDI

Prezidentimiz raisligida shu yil 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishi, hech mubolag‘asiz, tarixiy yig‘ilish bo‘ldi. Sababi, ijtimoiy himoyaning har bir yo‘nalishiga yechim topib berildi. Endi ular bilan ishlashda butunlay yangi tizim yaratiladi.

Avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali va insonparvar qilish uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Keyingi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, jumladan, kam ta‘minlangan oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida ko‘rsatish,

og‘ir ahvoldagi fuqarolarga ijtimoiy yordam dasturlari orqali ko‘maklashish, moddiy darovonligini oshirish, keksa avlod vakillarining manfaatini himoya qilish, shuningdek, insonparvarlik, mehr-oqibat va saxovat tadbirlarini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-beta

### Dil izhori

## HARAKAT QILING VA INTILING

SHUNDA MO‘JIZALAR HAMMA JOYDA BO‘LISHIGA ISHONASIZ

Yoshligimda matonatli insonlar haqida ko‘plab filmlar ko‘rdim, hayotda eshitardim, kitoblarda o‘qirdim. Matonatli sarkardalar, olimlar va shoirlar haqida bilganlarimga havas bilan qarardim. Lekin bir gapki, ular kabi matonli zamonning, taqdirning o‘zi yaratarkan.

Davomi 2-beta

### Buyuk o‘zbek yo‘li

## “YASHIL” TARAQQIYOT

Yangi O‘zbekistonni TASHABBUSLAR va KELAJAK MAMLAKATI sifatida namoyon etmoqda

Joriy yil 13-dekabr kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Shu kuni dunyodagi eng yirik “yashil” energetika ishlab chiqaruvchilar, investorlar, kelajak loyihachilari Toshkentda jam bo‘ldi. O‘tgan yili dekabrda 5 ta quyosh va bitta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan edi. Oradan bir yil o‘tib, umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod yana 24 ta loyiha tayyorlandi. 13-dekabr kuni esa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ramziy dastakni bosib, 18 ta majmuaning faoliyati va 6 ta loyihaning qurilishini boshlab berdi.

Bu loyihalar O‘zbekistonning ishonchli hamkorlari bo‘lgan “Masdar”, “ACWA Power”, “Aksa Enerji”, Xitoy va Germaniyaning nufuzli kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. E‘tiborlisi, bunday loyihalarning barchasi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Ushbu 24 ta loyiha orqali kelgusi yillarda qo‘shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi, 4,6 million tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi. Eng muhimi, 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta‘minlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning boshqa sohaslarida 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishga turki beradi.



Erishilgan bu yutuqlar va qayd etilgan raqamlar zamirida katta hayotiy maqsadlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanishning kelajakka qaratilgan quvvatlari bor. Raqamlar faqat qog‘ozdagina “jim turishi” mumkin. Ularning oddiy odamlar hayotidagi “so‘zi”ni chuqur tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, o‘tgan

sakkiz yil davomida hali ko‘pchiligimiz teran tushunib yetmayotgan tarixiy ishlar bajarilgani, kelajak uchun juda muhim poydevor yaratilayotgani guvohi bo‘lamiz. Ularning angamlari hayotimizda qanday ifoda topadi?

Davomi 3-beta



## HARAKAT QILING VA INTILING

## SHUNDA MO'JIZALAR HAMMA JOYDA BO'LISHIGA ISHONASIZ

Boshlanishi 1-betda

“Kelgusi orzu-maqсадlarim ham bisyor. Avvalo, o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, tajribamni orttirib, korxonamni kengaytirmoqchiman. Men singari hayotning beshafqat zarbalariga uchrab, biroq o'zini tiklay olmayotganlarga aytmochi bo'lganim shu: mo'jizalar hamma joyda bo'lishi mumkin.”

Oltinsoy tumanida tug'ilib o'sdim. Katta orzular qildim. Tikuvchilik to'garaklariga borardim. U paytlar "Qiz bola o'qib, olim bo'larimmi?" degan gap bo'lardi. Qizlar oliygohlarda o'qimasdi. Hozir qarag, har bir xonadonning nafaqat o'g'il farzandi, balki qizlari ham o'qishga intilyapti va davlat tomonidan hamma sharoit yaratilgan. Shunga mos o'qimishli qizlar safi kun sayin ortib boryapti. 2006-yilda qo'shni Denov tumanidagi Orol mahallasiga kelin bo'lib tushdim. Katta ro'zg'or, katta tashvishlarga o'ralashib, hayot ikir-chikiriga qorishib ketdim. Munchoqdek uch farzandim tug'ildi.

2021-yil baxtsiz hodisa tufayli ikki oyog'imdan ayriildim. Bir yilga yaqin shiffta tikilib yotdim. Yotaversang, qolib ketaverarkansan, yashash uchun kurash maydoniga chiqdim. Bolalarim va ovsinim shunda menga o'qituvchi, ustoz bo'lib, hayotni qayta o'rgata boshladi. Bundan kuch oldim.

Unutmangki, sizni o'ldirmagan narsa sizni kuchli qilarkan. Eng yaxshi narsalar hali oldinda, umidsizlikka tushmaslik kerakligini tushuna boshladim. Shu kungacha tayanib uzzukun televizor ko'rib o'tirganimda, joylardagi o'zgarishlar, chiqarilayotgan qonun-qarorlar natijasini

kuzatib, bir harakat qilay-chi, degan tushuncha bilan ish boshlaganim.

Ovsinim dastlab yonimga kirgan. Qo'shnilar taskinga chiqqan. Mas'ullar 2022-yilda bitta tikuv mashinasi bergandi. Shu menga suyanchiq bo'ldi. Keyinchalik imtiyozli kredit asosida yana 7 ta tikuv mashinasi oldim va keng ko'lamda ish boshladim. Ayollarga bepul kasb ham o'rgataman. Ayollar liboslari, bolalar kiyimlari, parda va uy anjomlari tikamiz. Mahsulot sifatli bo'lsa, uning xaridori ham ko'p bo'ladi.

Adiba Pardayeva — katta ovsinim. Uzoq yil birga, bir xonadonda yaxshi, inoq, opa-singildek yashadik. Falokat bo'lib, xunuk voqea bo'lganini eshitganidan tepamga kelib ezilib-ezilib yig'lardi. Uning aytishicha, avvaliga bitta oyog'im qoladi deyishganida, yaqinlarim ko'ngan, biroq shifokorlar ikkinchisida ham jarohat bor, uni ham kesamiz, aks holda o'zi vafot etadi, degan. Ikki oyog' evaziga hayotimni saqlab qolishgan. Hozir doim yonimda ovsinim. Tadbirlarda hamroh, tadbirkorligimda esa ko'makchi.

Yaqinda dunyoning eng ruhlantiruvchi "Top-100" ayoli ro'yxatiga kirdim. Eng muhimi davlatimiz rahbari ishlarimni alohida e'tirof etgani bo'ldi.



Dilorom YO'LDOSHEVA, "Mardlik" ordeni sohibi

"Mana shunday irodali, matonati insonlarni hammaga o'rnatqilib ko'rsatsak, ular bilan har qancha faxrlansak arziydi", dedi yig'ilishda Prezidentimiz. Viloyat hokimligidan turib videoselektorda qatnashayotgan edim. Birdan yig'lab yubordim. Prezidentimiz farmoniga muvofiq, menga yig'ilish chog'ida "Mardlik" ordeni tantanali topshirildi. Bu yangi marralar sari intilishga kuch berdi.

Kelgusi orzu-maqсадlarim ham bisyor. Avvalo, o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, tajribamni orttirib, korxonamni kengaytirmoqchiman. Men singari hayotning beshafqat zarbalariga uchrab, biroq o'zini tiklay olmayotganlarga aytmochi bo'lganim shu: mo'jizalar hamma joyda bo'lishi mumkin. Hayotni ko'p aylamang, harakatga kirishing va qo'lingizdan kelganini bajarishga intiling. Zamon o'z qahramonlarini saralab oladi va yarataveradi.

## Munosabat

Ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda davlatimiz rahbari bildirgan taklif va tashabbuslar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ifoda etilgan "ijtimoiy davlat" tamoyilining yorqin ifodasi bo'ldi. Prezidentimiz bu yil ijtimoiy himoya bo'yicha qilingan 34 ta muhim yangilikka qo'shimcha 28 ta yangi tashabbusni ilgari surdi. Kelgusida 1 million 200 ming kishini kambag'allikdan chiqarish uchun ta'lim, to'garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash zarurligi ta'kidlandi.

Albatta, avvalo, ijtimoiy himoya sohasiga davlatimiz ajratayotgan mablag' hamda ko'rsatilayotgan ijtimoiy va boshqa xizmatlar ko'plab mamlakatlar uchun namuna vazifasini o'taydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qoraqalpog'iston misolida aytak, birgina "Ayollar dafari" doirasida qariyb 8700 oilaga 8 milliard so'mdan ortiq davlat ko'magi ko'rsatilgan. Xususan, boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlardan 7427 nafariga 8,9 milliard, ijtimoiy yordamga muhtoj birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan 9756 nafariga 11,7 milliard, qaramog'ida nogiron farzandi bo'lgan xotin-qizlarning 3069 nafariga 3,9 milliard so'm moddiy yordam berilgan. Og'ir turmush sharoitida yashovchi 1116 xotin-qizning uy-joyi ta'mirlanib, ijara kompensatsiyasi to'lab berilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj salkam 32 ming ishsiz xotin-qizning bandligi ta'minlangan.

Shahar va tumanlar, ovul va qishloqlarga kirib borsangiz, bunday yordam va ko'makning ehtiyojmand ayollar, onalar va bolalar, oilalar

## HAYOTDAN ROZI YASHAMOQ BAXTI



Nazira MATYAQUBOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi J'qorg'i Kengesi deputati

hayotida qanday o'zgarishlar yaganani ko'rasiz. Ularning hayoti va kelajagiga umidi ortganiga guvoh bo'lasiz. Chunki moddiy yordam va ko'mak berish bilan birga aholini ishlil qilib, daromadini ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yilda kambag'allik yuqori bo'lgan mingta mahallada qo'shimcha bittadan oilaviy bog'cha faoliyati yo'lga qo'yilishi, yangi yildan oilaviy bog'cha o'rnlarning 15 foiziga kambag'al oila farzandlari qabul qilinishi va bog'cha to'lovi qisman qoplab berilishi xususidagi takliflari ehtiyojmand oilalar uchun juda katta imkon-

yatdir. Saylovchilar orasida bo'lganimizda farzandlarni bog'chaga joylashtirish va oylik badal puli to'lovi borasida murojaatlar bo'lardi. Masalaning bu tarzda hal etilishi aynan shunday oilalar manfaatiga xizmat qiladi.

Bugun kambag'al oilalardagi o'zi harakatlana olmaydigan shaxslarga ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-ukasi yoki opa-singlisi qarab kelayotgani ham ayni haqiqat. Kelgusi yildan mahalladagi ijtimoiy xodimlar va xususiy sektor ishtirokida bunday odamlarga uyida va kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo'lga qo'yilishi, natijada yaqiniga qarab turganlarning ishlashiga sharoit yaratilishi, shuningdek, bunday xizmat ko'rsatgan xususiy sektorga kambag'al oilalar xarajatining 80 foizini davlat qoplab berishi aytiladi. Bu ezu harakat oilaning ham moddiy, ham ruhiy-ma'naviy barqarorligiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim masala ehtiyojmand aholini bitta ijtimoiy uy-joyga joylashtirishdan voz kechib, o'zining mahallasiga yaqin joydagi uyni ijaraga olishiga ruxsat berish va xarajatini qoplashdir. Bu ehtiyojmandlarning yaqin qarindoshlari bilan odatiy yashash sharoitidan uzoqlashmagan holda turmush kechirishi uchun imkoniyat yaratadi. Qolaversa, milliy va oilaviy urf-odatlar, qadriyatlar, qarindoshlik munosabatlari bardavomligiga xizmat qiladi.

Videoselektorda muhokama qilingan barcha masala, ijtimoiy himoya sohasida ilgari surilgan tashabbus va g'oyalari yangi O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida dunyoda o'zini namoyon etib borayotganidan dalolat beradi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



## Nuqtayi nazar

## IJTIMOIY HIMOYA TAMOYILI

## MANZILLI ISHLAR TUFAYLI IJTIMOIY XIZMAT VA YORDAM BO'YICHA MUHOJAATLAR 35 FOIZ KAMAYDI



Mansurbek OLLOYOROV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori

Boshlanishi 1-betda

Xususan, ijtimoiy himoya sohasida salmoqli natijalarga erishgan davlatlar tajribasi chuqur o'rganilib, O'zbekistonda mazkur sohani rivojlantirish uchun malakali xorijlik ekspertlar jalb qilindi. Tahlillar natijasida aholining ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha qaror qabul qilindi va qator chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda.

O'tgan davrda barcha hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib,

102 ta ijtimoiy xizmat mahallalarda yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, shu yil reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko'rsatdi. 51 ming kishiga nogironlik belgilandi, ulardan 26 mingi protez bilan ta'minlandi. Yotib qolgan 4 ming yolg'iz keksa aniqlanib, ularni uyida parvarishlash yo'lga qo'yildi. Nogironligi bor 5 ming bola maxsus bog'cha va maktabga joylashtirildi. Bunday manzilli ishlar tufayli Xalq qabulxonalarini va hokimliklarga ijtimoiy xizmat hamda yordam bo'yicha murojaatlar 35 foiz kamaydi.

Shuningdek, nogironligi bor bolalarni ta'limga qamrab olish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda har bir tumanda bittadan bog'chada inklyuziv ta'lim guruhi ochiladi. Harakati cheklangan bolalarning maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilinadi. 1-sentyabrgacha 954 ta maktabda inklyuziv sinf tashkil qilinib, yana nogironligi bor 1800 bolaning o'qishiga sharoit yaratiladi.

Mamlakatimizda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari natijadorligiga erishish, to'plangan milliy tajribani qo'llash chora-



tadbirlarini yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amaliyotga tatbiq etildi.

Yig'ilishda kambag'allik reyestrini yuritish va shu reyestrda o'ylarni ana shu dastur asosida e'lon qilingan yettita imkoniyatning barchasi bilan qamrab olish bo'yicha vazifalar belgilab berildi. Kelgusi yili 1 million 200 ming kishini kambag'allikdan chiqarish uchun ta'lim, to'garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash zarurligi ta'kidlandi.

Ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning to'laqonli a'zosi aylanirish vazifasi berildi. Ayni paytda nogironligi bo'lgan 115 mingdan ortiq shaxsning bandligi ta'minlangan. Prezidentimiz bu raqamni 200 mingdan oshirish kerakligini aytdi.

Buning uchun qator imkoniyat va imtiyozlar ham berilyapti. Jumladan,

yaratilgan imkoniyatlar hisobiga bu yil tadbirkorlar nogironligi bor 40 ming fuqaroni ishga olgan. Bu qamrovni yanada kengaytirish uchun 1-yanvardan nogironligi bo'lgan ishchilarga ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi. Korxonalariga surdotarjimon, psixolog va ko'zi ojizlarga hamrohlik xizmati xarajati uchun 50 million so'mgacha subsidiya ajratiladi. Bunday odamlarni ishga joylagan xususiy bandlik kompaniyalariga 500 million so'mgacha grant beriladi.

Yaqin-yaqingacha muhtoj aholi turli ijtimoiy xizmat va yordamlarni olish uchun mahalliy hokimliklar yoki mahalla idoralariga borishi, hujjatlar yig'ishi va bir nechta joyga murojaat qilishi kerak edi. Bugun barcha ijtimoiy xizmat agentligimiz tasarrufidagi markazlar va ijtimoiy xodimlar orqali bir joyda ko'rsatilyapti. Aholiga ijtimoiy xizmat va yordam bir nuqtada taqdim etilishi orqali ortiqcha sarsongarchilik va qog'ozbozlikka chek qo'yildi.

Ilk bor 208 ta tuman (shahar)da ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yilib, ijtimoiy



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



xizmatlar mahallaga tushirildi. Ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda ijtimoiy ish (keys menagement) tashkil etish maqsadida

"Yagona milliy ijtimoiy himoya" AT tarkibida "Inson" AT va E-case elektron modululari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda ehtiyojmand aholini 12 toifa asosida belgilash standartlari joriy etildi. Ushbu yilda 3,6 million shaxs ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan qamrab olinib, ularga 1,9 millionta ijtimoiy xizmat ko'rsatildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, sohada yana bir muhim amaliyotga qo'l urilmoqda. Bu ham, o'z navbatida, turli qog'ozbozlik, ortiqcha ovorgarchiliklarning oldini oladi. Ayni paytda fuqarolar ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun

10 dan ortiq hujjatni olib yurishga majbur. Endi bularning o'rmini bosadigan yagona "ijtimoiy karta" joriy etiladi. U bilan jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o'qish xarajatiga kompensatsiya olish mumkin. Nafaqa va yordam puli ham shu kartaga tushadi. Bu tizim 1-iyulgacha Toshkent shahri va Yangiyo'l tumanida sinovdan o'tkaziladi, keyinchalik hamma joyda qo'llanadi.



Buyuk o'zbek yo'li

“YASHIL”

TARAQQIYOT

Yangi O'zbekistonni TASHABBUSLAR va KELAJAK MAMLAKATI sifatida namoyon etmoqda



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

**BIRINCHI ANGLAM:** noldan yaratilgan tizim yoxud qat'iy siyosiy iroda orqali butun dunyoni islohotlarimiz qudratiga ishonтира oldik.

Agar bundan bor-yo'g'i o'n yillar oldin “Yaqin orada O'zbekistonda “yashil” energetika quvvatlari taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy manbaga aylanadi”, deyishsa, o'zimiz ham ishonmagan bo'larдик. Ertak aytayti deb o'ylardik.

Toleni qarangi, bugun yangi O'zbekistonda “yashil” taraqqiyot og'ushida yashayapmiz.

Tahlilali davrda mamlakat miqyosida yangi tizimga asos solish, nafaqat asos solish, uni keng ko'lamda rivojlantirish oson ish emas. Shuningdek, hayotimiz zamonaviy texnologiyalar asosida jadallashayotgan bir davrda dunyodan e'tirof eshitish ham har kimga nasib qilavermaydigan yutuqdir.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nuktadonlik bilan ish ko'rib, o'tgan qisqa muddatda mamlakatda “yashil” energetika tizimiga noldan asos solgani bugun barchamiz uchun quvonchli hodisa bo'libgina qolmay, bizning kuch-qudratimiz, birlashsak, katta ishlarga qodir ekanimiz dalili hamdir.

Ochig'ini aytilish kerak, davlatimiz rahbari mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirish borasidagi tashabbuslarni, amaliy harakatlarni boshlab berganida, avvaliga ko'pchilik bu ishni hozirgidek darajada uddalashimizga ishonmagan edi.

Shunga qaramay, ruhimiz tushmadi, shahstimiz so'nmadik. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha juda katta maqsad va vazifalar belgilanib, amaliy ishlar boshlab yuborildi. Prezidentimiz bu boradagi harakatlarni bir so'z bilan juda ma'noli izohlaydi: “Yaratganning o'zi ato etgan bunday imkoniyatlarni xalqimiz manfaatlariga yo'naltirishning ahamiyati katta”.

Bu yo'lda bizni qo'llab-quvvatlovchilar ham ko'p bo'ldi. Ular bugun ham davlatimiz rahbarining tashabbuslarini, euzu maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi biz bilan birga harakat qilmoqda.

“Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston shunchaki bugungi kun bilan yashaydigan davlat emas. Uning Prezidenti esa kelajakni o'ylaydigan, kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor qo'yadigan, butun dunyoga uzoqni ko'ra olish qobiliyatini namoyon etayotgan yetakchidir”, dedi o'tgan haftada Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Muhammad Jamil Al-Ramahiy.

Bu dunyoda hamma narsaning, shu jumladan, harakatlarning ham o'z nomi bor. Kimgadir muhtoj holidagi ko'maklashsak, uni yaxshilik deb ataymiz. Yurtni himoya qilish, el nomusi uchun kurashish haqiqiy vatanparvarlik, deya sifatlanadi. Oilaga, mahallaga g'amxo'rlik insoniy burch deyiladi.

Millat saodati, milliy davlatchilik rivoji uchun qayg'urish, bugungi kun va ertangi kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishning sifati qanday bo'ladi?

“Masdar”ning bosh ijrochi direktori haq gapni aytdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tom ma'noda, bugun va kelajak yetakchisidir. Shu ma'noda, haqli ravishda davlatimiz rahbarining bu ezu sa'y-harakatlarini **MILLIY QAHRAMONLIK** sifatida qadrlasak, adolatdan bo'ladi.

**IKKINCHI ANGLAM:** bu vaqtincha emas!

Biz Buyuk Amir Temur bobomizning “Saltanat to'nini kiygach, tanimdan halovat ketdi”, degan ta'sirchan so'zlari mag'zini keyingi yillarda anglab yetyapmiz. Bunda davlatchilik ishiga, el-yurt xizmatiga bel bog'lagan inson amal qilishi zarur bo'lgan oliy mezon nazarda tutilganini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev siyosida ko'ryapmiz, hayotimizdagi o'zgarishlar misolida sezyapmiz, ruhlanyapmiz.

Ba'zan bir inson taqdiri ko'z o'ngimizda o'zgarib ketadi. Oniy bir ehtiyotsizlik kishini bir umrga ojiz qilib qo'yishi mumkin. Yoki aksincha, bir jiddiy intilish bilan inson farovonlik sari yuzlanadi.

Demak, hayot harakatdan iborat, degan gap to'g'ri. Shu o'rinda jamiyatdagi muhiti o'zgartirish, odamlarni harakatga chorlash va ularni munosib yashash baxtiga erishtirishdek kuchli iroda oldida hamisha katta maqsadlar turishini anglab yetishimiz zarur bo'ladi.

o'tganimizda ham uch-to'rt kunlik amaliyot deb o'yladik. Mamlakatda erkin harakatlanish, Toshkent propkasi bilan bog'liq azoblar

ular barqaror rivojlanish bosqichiga o'tadi. Aytaylik, xonadonida katta-kichik tadbirkorlik loyihalarni boshlaydi. Ishlab chiqarish



barham topishi esa hali-hamon tushdek tuyulaveradi. Bir umr O'zbekistonda yashab, lekin fuqarolik berilmagan yurtodoshlarimiz bugun mamlakatimiz fuqarosi ekanidan baxtiyorligini hech to'xtovsiz aytib yuribdi.

quvvatlarini oshiradi; **ikkinchidan**, o'sha 4 million xonadonda boshlangan tadbirkorlik harakati boshqa bittadan oilani qamrab olganda ham 8 million ro'zg'orga baraka kiradi;



Davlatimiz rahbari bu yo'lda bizga hamisha o'rnak bo'lib kelyapti. Boshlangan islohotlarimiz ortga qaytmaslugini ko'p bor ta'kidlaydi. Ortga yo'l yo'q.

Nega mamlakatimizda boshlangan katta-katta ishlarga ba'zan ishonchsizlik paydo bo'ladi? Boisi, biz uzoq yillar tashabbus ko'rsatmadik, harakatsizlik iskanjasida yashab keldik, yangi g'oyalarni amalga oshirmadik. G'oya taraqqiyot ekanidan ko'z yumdik.

Lekin endi bunday emas. O'tgan qisqa fursat — atigi sakkiz yilda O'zbekiston haqiqiy TASHABBUSLAR MAMLAKATI'ga aylandi. Ko'z o'ngimizda shunday darajaga erishdik. Bu nimadan dalolat beradi? Xalqimiz qonida quyulgan gendagi kodlar uyg'onyapti. Uyg'onish hodisasi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, albatta. Unga turki, boshqacha aytganda, odamlar ongi va qalbiga “qo'ng'iroq effekti”ni singdirish zarur bo'ladi.

Inson tabiatan juda murakkab xarakterga ega. U doim o'zi ko'rgan va guvohi bo'lgan, tanida his qilgan voqea-hodisalardan xulosalanadi. Yangi O'zbekistonda jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish borasida qilingan ishlar ham xuddi shunday — odamlarda yaxshi yashashga bo'lgan intilish xulosasini shakllantiradi.

Shu bois, biz boshlagan yirik ishlarimizni oxirigacha muvaffaqiyatli yetkaza olaymiz. Keling eslaymiz, valyutani erkinlashtirish siyosati boshlanganida ko'pchilik bizga ishonmagandi, bank plastik kartalaridagi pulni bankomatlar orqali bemaol naqdlashtirishga

“Yashil” energetika tizimida bugungi erishilgan yutuqlarimizni ham bundan to'rt-besh yil avval tasavvur qila olmasdik. Ammo har bir ishni qat'iy iroda, fidoyilik va azmu shijoat bilan qilsak, qanday natijalarga erishish mumkinligini o'tgan haftadagi tadbirlar misolida ko'rdik. Xorijlik nufuzli mehmonlar e'tiroflarida bizga va olib borilayotgan islohotlarimizga bo'lgan ishonchning yaqqol ifodasiga amin bo'ldik.

Ulardan biri — Xitoyning “Shina national technical” kompaniyasi prezidenti Li Xu shunday dedi: “Davlatimiz rahbarining olib borayotgan siyosati, mavjud qonun-qoidalar va aholining tadbirkorlikka bo'lgan ochiqiligini alohida ta'kidlash kerak. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston biznes uchun yanada yaxshi manzila aylanib bormoqda”.

**UCHINCHI ANGLAM:** kelajak loyihalari — milliy davlatchiligimiz faxriga aylanadi. Maqolamiz avvalida bir qator raqamlarni keltirib, ularning hayotdagi “so'zi” g'oyat ta'sirli ekani haqida aytgan edik. Endi shu fikrimizni ayrim faktlar bilan izohlashga harakat qilamiz.

E'tibor bering, joriy yil 13-dekabr kuni ishga tushirilgan va qurilishi boshlangan jami 24 ta loyiha tufayli 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta'minlanadi. Buning natijasida:

**birinchidan**, agar har bir xonadonda o'rtacha uch-to'rt kishi yashashini hisobga olsak, taxminan 15 milliondan ziyod yurtodoshimiz hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Ya'ni

**uchinchidan**, bunday harakatlar natijasida iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham 4 milliard dollarkali qo'shilgan qiymat yaratishga turki beradi.

Bu byudjetimizga yirik miqdorda kirim paydo bo'ladi, degani. Albatta, bu mablag' bizniki bo'ladi. Ular hisobiga bog'cha, maktab, tibbiyot muassasalari quriladi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga uzluksiz va tizimli yordam ko'rsatiladi, kambag'al oilalar farzandlari oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi;

**to'rtinchidan**, 1 kambag'al oiladan hech bo'lmaganda 1 nafar oliy ma'lumotli chiqsa, u o'z oilasini boqishga qodir bo'ladi. Shu tariqa jamiyatda kambag'al oilalar soni qisqarib boradi.

Buni hech ikkilanmasdan, kambag'alnikni tugatish bo'yicha “YANGI O'ZBEKISTON TAJRIBASI” sifatida e'tirof etishimiz mumkin bo'ladi;

**beshinchidan**, Prezidentimiz bejiz toza energiyani rivojlantirish borasida qayg'urmayapti. Boisi, dunyoda toza — “yashil” energiya asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab kun sayin kuchayib bormoqda.

Biz bugun dunyo bozorlarini zabt etish harakatidamiz. Dunyo bozori esa sizdan so'raydi: “Xo'p yaxshi, menga chiroyli, sifati kostyumshim olib kelibsan, u qanday energiya yordamida tayyorlangan?”. Siz aytasiz: “Oddiy, ota-bobolarimiz foydalanib kelgan an'anaviy elektr manbai bilan”. “Yo'q”, deydi u, “menga tabiatga zarar keltirib ishlab chiqargan bu mahsulotning kerak emas”.



Yevropaning qoq markaziga borib aytg: “Hoy do'stlar, men tikkan mana bu kostyumshim O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. U bizda juda keng qo'llanilayotgan “yashil” energiya quvvati yordamida tayyorlangan”. Shunda ular sizning mahsulotingizni bajonidil qabul qiladi. Xalqimiz tili bilan aytganda, bozoringizni beradi.

Mana shu birgina raqam sharhidan ham anglashiladiki, mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan “yashil” energetika loyihalari, haqiqiy ma'noda bugunimiz va kelajagimiz uchun g'oyat jozibador hamda milliy taraqqiyotimizning ertangi kunida hal qiluvchi ahamiyatga ega omillardan biridir.

**TO'RTINCHI ANGLAM:** taraqqiyot yo'lidagi yurish emas, yugurish kerak!

Tabiatda instinkt hodisalar ko'p. Masalan, biror xavf to'stadan yaqinlashganda ko'zimizni yumamiz, qormimiz ochsa, ovqat g'amini yeymiz, qattiq qayg'u yoki xursandchilikdan beixtiyor ko'zimizga yosh olamiz, hech kim o'rgatmasa ham kulamiz, yig'laymiz va hokazo.

Inson aqli bilan boshqariladigan tuyg'ular ham kam emas. Aytaylik, o'mi kelmaganda, bir so'z aytishdan tiyilasiz, yaqinlaringizga mehringizni ba'zan oshkor bildirmaysiz. Biror manfaat ko'rmagan joyga boshqa bormaslikka harakat qilasz...

Shu tariqa tabiiy va aqliy instinktlar dunyoviy munosabatlarni tartibga solib turadi. Ammo insoniyat komilligi uchun bularning o'zi kamlik qiladi, nazarlansiz.

Biz bugun XXI asrning birinchi choragini yashab o'tyapmiz. Ikkinchi chorak, ya'ni bir yildan so'ng dunyoda vaziyat tubdan o'zgarib ketishi ehtimoli katta.

Bunda siyosiy manzara alohida mavzu. Lekin tahlilchilar fikricha, xalqaro miqyosdagi yirik investorlarning yangi davri boshlanadi. Ular endi ko'proq “yashil” iqtisodiyot sari talpinadi.

Mana shu joyda mamlakatimizda “yashil” energetika, umuman, “yashil” taraqqiyotga nima uchun bu qadar muhim e'tibor qaratilayotganini yana bir mohiyati ochiladi. Demak, yangi O'zbekiston nafaqat bugun, balki juda yaqin **KELAJAK MAMLAKATI** bo'lishga intilmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklarining energetika va infratuzilma vaziri Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy shunday dedi: “Janob Prezident, sizning uzoqni ko'ra oladigan yetakchiliginiz tufayli O'zbekiston ulkan yutuqlarga erishib, innovatsion taraqqiyot yo'lidagi qadam tashlamoqda...”

Doktor Sulton janoblari bilan birgalikda 500 megavatt quvvatga ega Zarafshon shamol elektr stansiyasini ishga tushirayotganimizdan g'oyat mamnumiz. Bu Markaziy Osiyodagi eng yirik loyihalardan biri bo'lib, sizning energetika sohasidagi yetakchiliginizning jahon miqyosidagi yana bir ifodasi. Bunday murakkab loyihaning qisqa muddatdagi realizatsiyasi, so'zingizga sodiqligingiz va kuchli irodaga ega lider ekaningizni yaqqol ko'rsatdi.

Siz bilan yelkama-yelka ishlash men uchun ham sharaf, ham ulkan mas'uliyatdir. “Biz yurish emas, yugurishimiz kerak, ortda qolmaymiz”, degan so'zlarimiz hamon qulog'imizda jaranglab turadi. Shu bois, biz ham siz bilan birgalikda olg'a intilish va yuqori marralarni zabt etishga tayormiz. Biz nafaqat qayta tiklanuvchi energiya sohasida zamonaviy mamlakat qurish, balki qo'shni davlatlar va Yevropa bozorlariga energiya eksport qilishdek buyuk maqsadlarimizni amalga oshirishda ko'mak berishga doim tayormiz. Sizning kelajakni ko'ra oladigan yetakchilik qobiliyatingiz biz uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda”.

Biz yuqorida insoniyat komilligi uchun tabiiy va aqliy instinktlarning o'zi kamlik qilishi haqida bejiz aytmadik. Boisi, Prezidentimizning “Biz yurish emas, yugurishimiz kerak, ortda qolmaymiz”, degan hayotiy chorlov mazmunidagi gapidagi tiriklik mohiyati o'sha bo'shliqni to'ldiradi.

Suhayl bin Muhammad al-Mazruiyning e'tiroflari ham barchamizga faxr bag'ishlaydi. O'zbekiston ulkan yutuqlarga erishib, innovatsion taraqqiyot yo'lidagi qadam tashlamoqda, dedi u.

Xalqaro miqyosdagi yirik investorlarning yangi davri haqida so'z ketganda, yangi O'zbekiston — investitsiyalarni har tomonlama kafolatlaydigan, investorlarning barcha loyiha



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan haftada yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag'ishlangan tantanali marosimda “Bugungi tadbir yurtimiz energetika tarixida yangi sahifa ochadi. Ishga tushirilayotgan bu loyihalar orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga erishamiz, balki kelajak avlodlarimiz uchun yashil va barqaror O'zbekistonning mustaqil poydevorini yaratamiz”, deganida juda katta maqsadlarni nazarda tutganini har birimiz tahlil qilib ko'rishimiz kerak bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, “yashil” energetika bilan farovon hayotimizni ta'minlashga erishamiz. Bu yo'lda bizda barcha imkoniyatlar, sharoit va huquqiy asoslar bor. Oldimizda esa birgina vazifa: boshlagan yo'limizdan aslo ortga qaytmaslilik, buyuk maqsadlarimiz sari hech ikkilanmasdan faqat va faqat olg'a yurish. Shunda biz marrani yanada baland olamiz, katta-katta rejalarimizni amalga oshiravermiz.



Bugunning gapi

# E'TIROFGA LOYIQ XALQCHIL LOYIHALAR

O'tgan hafta oxirida Prezidentimiz tomonidan energetika sohasida ishga tushirilgan loyihalar tom ma'noda mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Bugun energiyaga talab tobora ortib bormoqda. O'z navbatida, energiya resurslari kamayib ketayapti. Bunday sharoitda yagona yechim sohaga ilg'or, innovatsion texnologiyalarni tez joriy etish, energiya quvvatlarini olishning muqobil manbalarini yaratishdir. Shu jihatdan mazkur loyihalar xalqchilligi, "inson manfaati uchun" tamoyiliga yo'g'rilgan siyosat mahsuli sifatida barchada katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Chunki ular samarasini xalqimiz yaqin yillarda kundalik hayotidagi o'zgarishlar misolida sezib boshlaydi. Buni soha mutaxassislari, jamoatchilik vakillari hamda oddiy odamlar ham katta mamnuniyat bilan e'tirof etmoqda.



## AVVALGI DAVRNI HOZIRGA TAQQOSLAB BO'LMAYDI

Uzoq yillar energetika tizimida ishlagan inson sifatida bugungi o'zgarishlarni ko'rib, ayni vaqtda sohada ishlayotgan mutaxassislar havas qilaman. Chunki biz ushbu sohaning eng og'ir vaqtlarida ishladik. Bilasizmi, yurtimiz energetika tizimidagi inqiroz davri haqida so'rasha, men 2000-2015-yillarni aytgan bo'ldim. Tizimda tarmoqlar va texnika ma'nan eskirgan, buning natijasida muntazam uzilish kuzatildi. Qolaversa, elektr energiyasi taqchilligi uzoq vaqt cheklovlarini talab etardi. Bu esa, ayniqsa, kuz-qish mavsumida odatiy holga aylangandi. Holat aholining kayfiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatardi. Buning ortidan biz, elektrklar ko'p malomatlil gap-so'z eshitganimiz ham chin. Ammo noltoj edik. Sababi elektr energiyasi

taqchil edi. Elektr energiyasi iste'molida aholining qarzdorligi juda yuqori bo'lgan. Sohadagi muammolarga yechim topish, islohotlar o'tkazish talab etilardi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2016-yildan sohada asta-sekinlik bilan o'zgarishlar kuzatila boshladi. Tizimga yangi, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi ham bunga turki berdi. Misol uchun, xonadonlarga yangi hisoblagichlar o'rnatib chiqqanimiz esimda. Shunda ham muammolar kuzatilar edi. Hozir "aqlli" hisoblagichlar o'rnatilganidan keyin ko'p muammoga yechim topilib, iste'mol qarzdorliklariga ham barham berildi. Energetika sohasida 40 yil mehnat qildim. Yurtimizda muqobil energiya manbalari, ya'ni shamol va quyoshdan elektr energiyasi ishlab

chiqarish yo'lga qo'yilishi xayolimizga ham kelmagan. Mutaxassis sifatida aytishim mumkin, bu elektr energiyasi taqchilligining oldini olishda eng maqbul yechim. Viloyatimizning o'zida ham bir necha stansiya ishga tushirildi. Karmana tumanida quyosh, Tomdi tumanida shamol elektr stansiyalari qurilib, ishga tushirildi esa bu borada tarixiy voqea bo'ldi. Nurotadagi gidrid elektr stansiyasi qurilishi boshlanishi, qolaversa, yurtimizning boshqa hududlarida ham shu kabi loyihalarga start berilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Tizimdagi xayolimizga kelmagan bu islohotlar bugun haqiqatga aylandi. Hozirgi sharoitda mehnat qilgim keladi. Texnikalar ham zamonaviy va qulay. Biz esa bitta simyog'ochni qo'lga chuqur qazib, o'rnatardik. Hozirchi, butun shamol parraklarini ham texnika joylashtiryapti. Birgina mutaxassisning o'zi yetarli. Avval bitta transformator o'rnatishga ham butun brigada jalb qilinardi. To'g'risi, tizimdagi shunday og'ir davrlar ortda qolganidan soha faxriysi sifatida juda xursandman. Islohotlar bardavom bo'lsin.

Ahmad MUSTAFOYEV,  
mehnat faxriysi  
Navoiy viloyati

## BU KUN BIZ UCHUN TARIXIY BO'LDI

2024-yilning 13-dekabr sanasi chindan ham biz uchun tarixiy kun bo'ldi. Chunki Prezidentimiz tomonidan start berilgan 24 loyihaning biri bizga daxldor. Gap shundaki, "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Shon-shuhrat mahallasi hududida investitsiya loyihasi asosida Turkiyaning "ILTEKNO" kompaniyasi bilan hamkorlikda yangi, zamonaviy hamda energiyatejammor kogeneratsiya qurilmasi bunyod etildi. Marosimda ana shu qurilma ham ishga tushirildi. Umumiy loyiha qiymati 3,6 million dollarga teng zamonaviy energiya inshootining foydali ish koeffitsiyenti 80 foizdan yuqori. Loyiha ishga tushirilishi natijasida yiliga 8 million kilovatt-soat elektr energiyasi hamda 52 ming gigakaloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Eng zamonaviy va yuqori tejamkor texnologiyalar o'rnatilgan hisobiga yiliga 0,7 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi. Atmosfera chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar hajmi 67 foiz kamayadi. Loyihaga ko'ra, 10 ta yangi ish o'rni ochildi. Zamonaviy usulda qurilgan energetika qurilmasida ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi aholi xonadonlariga yopiq tizim orqali yetkazib berilishi tufayli yo'qotish kuzatilmaydi. Qurilma

sababli hududdagi 18 ta ko'p qavatli uy, 1 ta maktab, 1 ta ijtimoiy soha obyekti va mingdan ortiq xonadonni barqaror issiqlik energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati vujudga keldi. Ushbu qurilmaning dastlabkisi 2023-yil 14-oktabrida sinov tariqasida Chilonzor tumanining Oqtepa va Bog'zor mahallalari hududida bunyod etilgan edi. Ular Prezidentimizning 2022-yil 13-dekabrda Chilonzor tumanida bo'lib, aholining issiqlik ta'minoti holatini o'rganish natijalari bo'yicha belgilab bergan ustuvor vazifalari asosida amalga oshirilgan. Ijroiya natija ko'rsatadigan keyin bu kabi loyihalarni ommalashtirishga kirishildi. Ayni paytda Toshkent shahridagi 6 ta tumanda qiymati 34,5 million dollarlik kogeneratsiya qurilmalarini barpo etish ishlari bajarilmoqda. Shon-shuhrat mahallasidagi kogeneratsiya qurilmasi shular jumlasidan. Ayni kunlarda Sergeli tumanida ham kogeneratsiya qurilmasi bunyod etilyapti.

Fayzulla SHOISMATOV,  
"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ  
boshqaruvi raisining  
investitsiyalar  
bo'yicha o'rinbosari



## O'ZBEKISTONDA MUQOBILI YO'Q

Kundalik hayotimizni elektr energiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aholining mutasils ko'payib borishi, yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo'lidagi islohotlar elektr energiyasiga talabni oshirayotgani tabiiy. Prezidentimiz shu yil 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga amaliy tashrifi chog'ida O'zbekiston tumani hududida Xitoyning "Gezhouba Group" kompaniyasi bilan hamkorlikda ilk elektr energiyasi saqlash tizimi qurilishi loyihasini boshlab bergandi. Juda qisqa muddatda aholi xonadonlari va xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun kerakli loyiha ishga tushirilganini ko'rib, g'ururlandik. Bu bejiz emas, albatta. Mahallamizning janubiy sarhadiga tutash, yaqin yillargacha g'ijoh ummagun, tosh-shag'aldan iborat dala-dashtdagi qurilish, bunyodkorlik ishlari g'uvoh bo'lib turdik. Yaqingacha kimgir "Bu yerlar hali obod bo'ladi, aholi farovonligiga xizmat qiluvchi yirik ishlab chiqarish tarmoqlari quriladi", desa, hech kim ishonmasdi. Bugun bu gap hayotiy haqiqatga aylandi. Kuchli shamol bo'lsa yoki havo harorati keskin pasaysa, necha kunlab elektr energiyasiz qolganimiz kechagidek esimda. Bugun vaziyat tubdan o'zgaradi. Aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash borasida ko'plab loyihalar amalga oshirilayotir. Zamonaviy elektr energiyasi saqlash tizimi qurib bitkazilgani bugungi va ertangi kunimiz uchun juda muhim voqea. Bu masalaning bir jihati. Boshqa tomondan esa yangi loyiha orqali chekka hududga yangi hayot, farovonlik, bunyodkorlik an'analari kirib keldi. Suv yetib bormagan ovloq joylarda obihoyat chiqarildi, uch kilometrdan ortiq yangi yo'l yotqizildi. Suv yetarli, yo'li ravon joyda taraqqiyot, rivojlanish bo'ladi, xizmat ko'rsatish tarmoqlari qurib, qo'shimcha ish o'rnlari ochiladi. Bu yerda salmoqli bunyodkorlik ishlari qilindi. Ko'z oldimizda muhtasham korxonalar bo'y ko'rsatdi. Elektr energiyasini saqlab, kerakli paytda uzatish loyihasi haqida ilgari eshitmagandik. Mana endi uni o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Bu juda katta imkoniyat, qulayliklar yaratayotgani bilan e'tiborni tortadi. Umumiy quvvati 150 megavattga teng elektr energiyasi saqlash inshooti bor-yo'g'i to'rt oyda qurib bitkazilgani yurtimiz kuch-qudrati, salohiyatidan darak beradi. Yangi inshoot qurilishida mahallamiz yoshlari imkon qadar ishlab, hissa qo'shdi. Jarayon shu bilan cheklanib qolayotgani yo'q. "Mahalla yetilligi" yordami bilan yoshlarni mana shu yo'nalishlarda kasb-hunarga o'qitish, migratsiyadan qaytarish, malaka va mahoratini oshirish borasida targ'ibot qilyapmiz. Bu inshoot mamlakatimizda birinchi tarmoqqa ulangan batareya energiya saqlash tizimi bo'libgina qolmay, Markaziy Osiyodagi eng yirik energiya saqlash omboridir. Qurilma elektr manbayiga ehtiyoj kamaygan kunduz va tungi paytlarda elektr tarmog'iga ulanib, iste'moldan ortib qolgan elektr quvvatini omborda yig'adi va zarur bo'lganda qayta tarmoqqa yetkazib beradi. Elektr energiyasini batareyada saqlash, ayniqsa, qishda qo'l keladi. Kunduzi bosim past bo'lgan vaqtda tizimni quvvatlantirish, yuklama yuqori bo'lganda bo'shatib, tizimdagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Turli noqulay ob-havo sharoitida ham elektr energiyani uzluksiz yetkazib bera olish xususiyatiga ega. Bu qulay va ishonchli tizim sifatida minglab odamlarning hayot tarzini o'zgartirishga xizmat qiladi. Joriy yil 13-dekabrda davlatimiz rahbari energetika sohasidagi obyektlar va loyihalarni ishga tushirish marosimida ishtirok etib, 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilishi va navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start bergani mamlakatimiz energetika sohasida yangi sahifa ochgan kun sifatida yodimizda saqlanib qoldi.

Hasanboy SATTOROV,  
O'zbekiston tumani "O'qchi"  
mahalla fuqarolar yig'ini raisi

## SAMARADORLIK ORTMOQDA



vil sentabrda ishga tushirildi. Hozir bir soatda 315 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Joriy yil yakuniga qadar ishlab chiqarish quvvati 380 megavattga yetkaziladi va 2025-yil fevraldan to'liq quvvat bilan ishlay boshlaydi. Natijada korxonadan bir yilda 3,4 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Hozir mazkur loyiha qurilishiga minggacha yangi ishchi-xodim jalb etilgan bo'lsa, to'liq ishga tushirilgandan so'ng 200 ta doimiy ish o'rni ochiladi. Shuningdek, soatiga 400 ming kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu Mirishkor tumanining bir kunlik elektr energiyasi iste'molidan ko'p degani. Eng asosiysi, tizimda elektr energiyasi tanqis

dollarni tashkil qiladi. U ishga tushirilishi natijasida yiliga 2 milliard 386,7 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. 2024-yil sarhisobi haqida gapirsaq, aynan aholi va tadbirkorlik subyektlarini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, energiya manbalaridan samarali foydalanish ko'lamin kengaytirish borasidagi ishlar salmog'i yuqori bo'ldi, deya bemaol aytish mumkin. Kelgusi yilda bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada ortadi. Sanjar TOSHEV,  
Qashqadaryo viloyati  
hokimligi kotibiyat mudiri

## Islohot odimlari

Bepoyon past-u balandliklardan iborat kenglik. Bir qarashda oddiy tepalikdek ko'rinadi. Aslida, shu birgina balandlik ostida ham qanchadan qancha tabiiy qazilma boyliklar borligi kishini hayratga soladi. Bundan tashqari, ushbu yerdan qazib olinayotgan turli toshlardan ajratilayotgan xomashyo qurilish materiallari tayyorlash uchun juda muhim ekani kishining qiziqishini yanada oshiradi.

Chiroqchi tumanida tog'-kon sanoatini rivojlantirish, sohada ishlab chiqarish hajmini oshirish va zaxira boyliklardan oqilona foydalanish borasida tizimli ishlar bajarilmoqda. Beshbuloq qishlog'i Chiroqchi tumani markazidan ancha olisda joylashgan. Tog' etagidagi qishloqning yuqori qismida marganes ruda konlari aniqlanganiga ancha yil bo'lgan. Aytishlaricha, bu yerdagi konlar dastlab 1940-yillar, keyinchalik 1980-yillar atrofida geologik qidiruvlar natijasida aniqlangan. Shundan so'ng ko'p yil foydalanilmay turgan. Aynan shu joyda xomashyo mavjud bo'lsa-da,

yurtimizga chetdan import qilingan. Keyinchalik sohada qazilma, amaliy tadbirlar natijasida imkoniyatlar ishga solindi. Natijada kundan qazilma boyliklar olina boshlandi. Tog' yo'li orqali marganes ruda koni tomon chiqib borarkanmiz, katta yuk mashinalari pastlikka tushib kelardi. Bir qator bo'lib harakatlanib kelayotgan mashinalar ustida yuk to'la. Adirliliklarning eng yuqori qismida qazilma ishlari qizg'in kechmoqda. Konchilar asosan, texnikalar yordamida kovlab olingan mahsulotni yuk mashinalari orqali shu yaqindagi tekislikka olib kelib to'kmoqda. U yerda maxsus uskunalar orqali saralanib, ikki xil ko'rinishga keltirilgan holda qayta yuzlanmoqda. Bu yerdan ikki turga ajratilgan qazilmalar to'g'ridan-to'g'ri asosiy omborga tashib borilarkan. Biz ishlayotgan joy "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJga qarashli Dashtosh marganes ruda koni, — deydi "Alpha mining group Asia" mas'uliyati cheklangan jamiyati ish yurituvchisi Feruz Xolliqov. — Jamiyatimizning asosiy faoliyati kondagi qazilma ishlarni bajarib, shu yerning o'zida maxsus texnikalar orqali saralab olishdan iborat. Shundan so'ng

# CHIROQCHIDA YANGI KON O'ZLASHTIRILDI



Yakkabog' tumanidagi omborga olib boriladi. U yerda qayta ishlanib, qadoqlangan holda tayyor mahsulot sifatida "O'zbekiston metallurgiya kombinati"ga yetkazib beriladi. Kombinat ishlab chiqarish rejasiga ko'ra buyurtma beradi. Biz shunga qarab mahsulot bilan ta'minlaymiz. Hozir oyiga 3 ming tonna mahsulot yetkazib berilmoqda. Qo'shimcha kerak bo'lsa, yanada

ko'p ishlab chiqarish mumkin. Ayni paytda jamiyatimizda 60 ga yaqin kishining bandligi ta'minlangan. Ularning asosiy qismi mahalliy aholi vakillari. Ishchilar uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Xususan, ovqatlanish, dam olish uchun sharoit qilingan, yotoqxona bilan yetarli darajada ta'minlangan. Ish jarayonida deyarli to'liq texnika yordamidan foydalaniladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, marganes rudasining asosiy qismi po'lat ishlab chiqarish, rangli metallurgiya sanoati, aliyuminiy va magniy qotishmalarini tayyorlashda qo'llanadi. Asosan, metallning qattiqligini oshirish va egiluvchanligini mustahkamlash eng kerakli mahsulot. Mutaxassislar ta'kidlashicha, birgina shu hududning o'zida beshta kon mavjud. — Chiroqchi tumanidagi marganes ruda konlari 2018-yilda korxonamizga o'tkazilgan, — deydi "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ Davtosh konlari boshlig'i Zubaydulla Rahimov. — Metallurgiya bo'yicha muhim hisoblangan, oldinlari faqat xorijdan import qilingan mahsulot bugun o'zimizda, ya'ni aynan Davtosh konidan qazib olinmoqda. Natijada import o'rni to'liq qoplanmoqda. Ayni paytda bu yerdagi ishlarni bajarish uchun xorijiy korxonalar bilan kombinatimiz o'rtasida shartnoma tuzilgan. Unga ko'ra, korxonalar o'z imkoniyatidan foydalangan holda kunda qazilma ishlarni bajarib, qayta ishlab, kombinatimizga mahsulotni tayyor holda yetkazib bermoqda. Bundan tashqari, qator loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ham chora-tadbirlar ishlab

chiqilgan. Bu esa mahalliy aholining ish bilan ta'minlanishiga qulayliklar yaratadi. Chiroqchi tumani hokimligi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilda "Alpha mining group Asia" mas'uliyati cheklangan jamiyatining xorijlik rahbari bilan uchrashuv o'tkazilgan. Unda hamkorlar asosan Davtosh marganes koni atrofida kundan chiqqan tog' jinlarni tashlash hamda kon yaqinida kichik shaharcha qurish uchun yer maydoni ajratilishi taklifini bildirgan. Shuningdek, rossiyalik investor Davtosh marganes konida marganes rudasini qayta ishlash uchun 12 million dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilish taklifini aytgan. Natijada 100 ta yangi ish o'rni ochilib, mahalliy aholi jalb etilishi ko'zda tutilgan. Muzokaralar davomida tuman hokimligi va xorijlik investor o'rtasida shartnoma imzolangan. Investor tashabbusi bilan tashkil etiladigan kichik shaharchada aholi uchun barcha sharoit yaratilishi belgilangan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab hamda intensiv texnologiyalar asosida 5 gektar maydonda bog' tashkil etiladi. Albatta, bu ishlar natijasida aholi turmushi farovonlashib, yangi ish o'rnlari ochiladi. Hudud obodligiga katta e'tibor qaratilib, infratuzilma yaxshilanadi.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





Vatanparvarlik ruhi

MA'NAVIY YUKSALISH POLIGONI

Olimjon O'SAROV, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi

Insoniyat tamadduniga beshik bo'lgan ona yurtimiz yangi davrga qadam qo'ydi. U jahonda yangi O'zbekiston nomi bilan qayta bo'y ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mard va olijanob xalqimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarida yuksak marralarni ko'zlab, yangidan yangi yutuqlarga erishmoqda. O'zining muqaddas qasamyodiga hamisha sodiq, xizmat burchini sharaf bilan ado etayotgan bahodir o'g'lonlarimiz ham ulug' ajdodlar an'anasini davom ettirgan holda xalqimiz orzu-umidlarini ro'yogba chiqarish, yurtimiz ravnaqi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimiz tinchligini himoya qilish yo'lida sobitqadamdir.

Bugun dunyoda kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, turli ko'rinishdagi tahdidlar fonida sodir bo'layotgan tendensiyalar eng qimmatli boyligimiz — jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash naqadar muhim ekanini yana bir bor anglatmoqda. Zotan, yon-atrofimizda ro'y berayotgan vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini

kelishi bejiz emas.

Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida davlatimiz rahbarining tegishli qarori hamda shu yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan belgilab berilgan muhim vazifalar asosida Mudofaa vazirligining Ma'naviyat va madaniyat departamenti tashkil etildi.



Bu muhim voqea Mudofaa vazirligida harbiy madaniyat va san'at yo'nalishini takomillashtirish, qo'llab-quvvatlash, ma'naviyat va madaniyat markazlari, harbiy orkestrlar, kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va samarali boshqarishda yangi amaliy qadam bo'ldi.

Ma'naviyat va madaniyat departamenti yangi tarkibiy-shart tuzilishida tashkil etilib, unga Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansambli, alohida ko'rgazmali-namunalari harbiy orkestr, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, "Turon" harbiy teatri bo'yusundirildi.

Shuningdek, joylardagi 5 ta garnizon ma'naviyat va ma'rifat markazlari, 16 ta harbiy orkestr hamda 56 ta harbiy qismining madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish ham departamentga yuklatildi. Ushbu tizim joriy etilishi natijasida vazirlikning oldin tarqoq bo'lgan harbiy madaniyat va san'at bo'limlari yagona maqsad yo'lida bir maskanda birlashtirildi.

Shuxrat Xalmuxamedov, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-mayor:

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, sarhadlarimiz daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash yo'lida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish kabi egru maqsadlarni qamrab olgan bilan diqqatga sazovor.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish va milliy hamda jangovar an'analimiz orqali haqiqiy vatan himoyachisi etib tarbiyalashda madaniyat va san'atning o'rni beqiyos. Zero, Qurolli Kuchlar mamlakat chegaralarini himoya qilsa, madaniyat inson qalbi va ongini asraydi.

Harbiy atamashunoslikda POLIGON degan tushuncha bor. Poligonda harbiylar jangovar shaykni oshirish maqsadida muntazam o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazadi. Mazkur majmua harbiy xizmatchilar, jumladan, yoshlarimizning ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, madaniyat, san'atga qiziqishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, majmua Mudofaa vazirligining ma'naviy yuksalish poligoni, desak mubolag'a bo'lmaydi.

vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, faxriylar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab mehmonlar departamentning yangi binosida faoliyat boshlagan Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansambli, alohida ko'rgazmali-namunalari harbiy orkestr, "Turon" harbiy teatri, shuningdek, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentining axborot-media boshqarmasi, "Vatanparvar" birlashgan tahririyati, elektron ommaviy axborot vositalari va veb-resurslar bilan ishlash bo'limlariga yaratilgan sharoit bilan yaqindan tanishdi.

Bugun axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti tomonidan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida davlat va nodavlat telekanallar bilan hamkorlikda "O'zbekiston armiyasi", "Vatanparvar", "Armiya sporti", "Men harbiy bo'laman" ko'rsatuvlari, informatsion dasturlar uchun xabar va lavhalar, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan, buyuk ajdodlar va milliy qahramonlar haqidagi videoroliklar va videokliplar tayyorlanib, egru uzatilmog'ida.

Harbiy madaniyat va san'at bo'limlari uzoq yillar o'z binosi hamda zarur infratuzilimga ega bo'lgan sharoitda faoliyat yuritib kelgan. Tabiiyki, bu holat ularning faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Endi dunyo tajribasi va zamonaviy infratuzilmalar asosida bunyod etilgan ushbu muassasa nafaqat harbiy xizmatchilarni, balki butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviyati, ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, madaniyat va san'atga qiziqishini rag'batlantirish bilan birga madaniy hordiq chiqarishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu muhtasham binoda vatanparvarlik ruhi aks etgan yangicha formatdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy uchrashuvlar, ijodiy kechalar, shoir va adiblarimiz bilan davra suhbatlari, konsert va yuqori saviyada sahnalashtirilgan spektakllar, kinofilmlar taqdimoti muntazam o'tkaziladi.

Tantanalil ochilish marosimiga bag'ishlangan yig'ilish Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda qator hamkor tashkilotlar ishtirokida "Harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik, yurtga fidoyilik sifatlarini yuksaltirishda madaniyat

Tadbir ishtirokchilarida 280 o'ranga mo'ljallangan anjumanlar zali, milliy kontent va maxsus teleoyihalar yaratish maqsadida tashkil etilgan 300 kvadrat metrli "Armiya studiyasi"

Shuhrat RIZAYEV, Kinematografiya agentligi direktori:

Demokratik jamiyatda g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashiladi. Shu ma'noda, milliy g'oyani targ'ib qilish, mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarga vatanparvarlik tuyg'usini yanada chuqur singdirish bo'yicha qator takliflar ishlab chiqqanmiz. Ulardan biri "Milliy qahramon" obrazini yaratishdir.

Bu obraz tarixiy shaxslarimiz timsoli asosida yaratiladi. Unda zamonaviylik va milliylik uyg'unlashtirilgan holda, o'ziga xos dizayndagi libos hamda personajning tashqi ko'rinishida jismoniy va g'ayritabiiy imkoniyatlar aks ettiriladi.

Milliy qahramonlar uchun maxsus senariylar yozilib, kinofilmlar, multfilm hamda seriallar tayyorlanadi va doimiy targ'iboti tashkil etiladi.

Zero, dunyoda vatan tinchligi, vatan taraqqiyotini harbiy xizmatchi va ijodkordan ko'ra chuqurroq his qiladigan boshqa kasb va soha vakillari kamdan kam topiladi. Chunki hammamiz — ijod ahli ham, harbiy xizmatchilar ham hayotimizni shu yurt tinchligi, mustaqilligi va farovonligi, farzandlar kelajagiga bag'ishlaganmiz va bu yo'lidan hech qachon qaytmaymiz.

Ushbu maskanning tashkil etilgani bizga qanchadan qancha imkoniyat ochib beradi. Yangi-yangi iste'dodlar kashf etiladi. Adashgan, ikkilanib yurgan yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi bu maskan. Men bunga ishonaman.

pavilyoni, zamonaviy ovoz yozish studiyasi va telemontaj xonalari katta taassurot qoldirdi.

Anjumanlar zali universal bo'lib, unda nafaqat anjumanlar yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, balki jonli ijrodagi konsert dasturlari va teatr tomoshalarini namoyish etish, kinozal sifatida foydalanish uchun ham barcha zarur sharoit yaratilgan.

va san'atning o'rni" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi bilan davom etdi.

\*\*\*

Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansamblining vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish kabi egru maqsadlarni qamrab olgan bilan diqqatga sazovor.

Tadbir so'ngida tinchligimiz va osoyishtaligimizning, chegaralarimiz daxlsizligining mustahkam qalqoni bo'lgan, ona vatan himoyasiga hamisha tayyor turgan mard va fidoyi harbiylarimiz, qadimidan o't chaqnaydigan bahodir o'g'lonlarimizga omonlik tilandi.

Otabek HASANOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari:

Dunyoda turli qarama-qarshilik, ziddiyatlar tobora ortib borayotgan bir paytda inson qalbi, yosh avlod ongi uchun kurash ham sezilarli darajada kuchaydi, axborot xuruji avj oldi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol topirishimiz zarur".

Shu bois, bu dargohdagi media imkoniyatlaridan yoshlarning mafkuraviy vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish shakllantirish, mediamakonda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi milliy kontentlarni ko'paytirishda samarali foydalanish juda muhim deb o'ylayman.

Ayniqsa, yoshlarda buyuk ajdodlarimiz

ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy ishlarga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin namunasidir.

Mudofaa vazirligi ma'naviyat va madaniyat departamenti binosining tantanalil ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi mas'ullari, Mudofaa, Madaniyat vazirligi rahbariyati, davlat va jamoat tashkilotlari, madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari vakillari, Mudofaa



Yodgor SA'DIYEV, O'zbekiston Milliy akademik drama teatri direktori, O'zbekiston xalq artisti:

Ushbu majmua faoliyat yuritayotgan, mamlakatimizda yagona bo'lgan "Turon" harbiy teatri faoliyatiga to'xtalmoqchiman. Ijodiy jamaodagi aktorlar mahorati va ular sahnga olib chiqayotgan mavzular ko'lami kengligi hamda yosh avlodni vatanparvarlik g'oyasi bilan tarbiyalashga xizmat qilishi e'tiborga molik. Bu teatr o'z sahna asarlarini yurtimizning o'z hududida joylashgan harbiy qismlarda, o'sha yerdagi aholiga ham namoyish etib kelmoqda. Bugun teatr uchun yaratilgan zamonaviy imkoniyatlar ko'rib, ochig'i, juda xursand bo'ldim va O'zbekiston Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan "Adolat fasli" spektakli tomoshasini ushbu sahnada ham namoyish etishni niyat qildik.

Bugun teatrlarimizda harbiy-vatanparvarlik mavzusida 20 dan ziyod sahna asari sahnalashtirilib, muntazam namoyish etilmoqda. Xususan, "Adolat fasli", "Jaloldin Manguberdi", "Ofitserlar", "Sadoqat", "Burch", "Mangu jasorat", "Bahodir", "Chegarachi" kabi spektakllar tomoshabinlarning sevimli asariga aylangan.

Xayriddin SULTONOV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi:

Bu muhtasham koshona mard va jasur xalqimiz tarixi, qahramonligini o'zida mujassam etgan "G'alaba bog'i", "Qahramonlar nomi barhayot" yodgorlik majmualari va "Shon-sharaf" davlat muzeyiga tutash hududda barpo etilgani chuqur ramziy ma'noga ega. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz janglarda ko'rsatgan beqiyos jasorat yurtdoshlarimiz, avvalambor, navqiron yoshlarimizning vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada yuksaltiradi, san'atkor do'stlarimizga yuksak ijodiy ruh, yangi ilhom baxsh etadi deb umid qilamiz.

Ayniqsa, ushbu koshonaning Olmazor tumanida barpo etilgani muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz bu maskanni aynan shu manzilda, G'alaba bog'i majmuasiga tutash hududda barpo qilishni tavsiya etganida maskan ma'no bor. Chunki poytaxtimizning Eski shahar qismida ham shunday ma'naviyat chiqqani, teatr bo'lishi hayotiy zarurat edi. Endi bu majmua poytaxtimizning Olmazor tumanida ilm-fan, dunyoviy taraqqiyot mash'alasi yonadigan, nur taratadigan ziyo maskani bo'lib xizmat qiladi. Nafaqat harbiy bo'limlar, ayni vaqtda tumandagi mahallalar, maktablar, umuman, Eski shaharga yangicha ruh va nafas olib kiradi.

Olmazor tumani ahli, avvalo, yoshlarimizni bu yerga kelib, san'atkorlarimizning iste'dodidan, shoirlarimizning haroratli ijodidan bahramand bo'ladi. Mazkur madaniyat va ma'naviyat maskani askar va ofitserlarimizning ma'naviy yetuk, o'tkir aql va xush axloq sohiblari dunyo maydonlarida hamisha g'olib bo'lishlariga munosib paydevor yaratishiga ishonamiz.

yanada oshirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash dolzarb vazifamiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Keyingi yillarda "Xalq va armiya — bir tanu bir jondir" degan egru g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi islohotlar natijasida milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanmoqda.

Vatanparvarlik so'z bilan emas, amaliy harakatlar bilan ko'rsatilgan, aniq maqsad yo'lida kuchaytirilgan, tahdidlarga qarshi turishda eng qudratli kuch sifatida maydonga chiqqan.

Buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur janglarda yengilmas sarkarda sifatida tarix sahnasida namoyon bo'lishi zamirida ham harbiy-vatanparvarlik va askarlar ruhiyatiga qaratilgan katta e'tibor, ruhiy tarbiya turgan.

Bugungi xalqaro vaziyat, turli tahdidlar yurt posbonlari oldiga yangicha talablarni ham qo'ymoqda. Yuksak ma'naviyatni, zamon bilan hamohang fikr yuritadigan, keng dunyoqarash sohibi bo'lgan harbiy qo'shinlarga kuchini, jangovar texnikasi va qurilini boshqalarga qaraganda samarali ko'lay oladi. Chunki hozir dunyoda insoniyat ong-u tafakkurini egallash uchun urush borayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Shu bois, muqaddas vatanni himoya qilish sharaflil burch ekani, birinchi navbatda, yoshlarning qalb-u shuuriga singdirilmoqda. Zero, globallashtirish, manfaatlarni to'qnashuvi yaqqol namoyon bo'layotgan ayni damda ajdodlarimiz qoldirgan muqaddas meros yosh avlodga namuna sifatida vatanning sadoqatli himoyachisi, xalqning munosib farzandi bo'lib yetishishda muhim o'rinni tutadi. Mana shunday ulkan ma'naviy boylik, o'timishdagi achchiq saboqlar, mustaqillik uchun mardonavor bosib o'tilgan shonli yo'l bugun gullab-yashnayotgan yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'li va buyuk o'zbek xalqi qurayotgan qudratli mamlakatning asosini tashkil etadi. Prezidentimiz doimo harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarurligini ta'kidlab



Ozodbek NAZARBEKOV, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri:

Yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlari qiyofasini shakllantirishda "Xalq va armiya — bir tanu bir jondir" degan egru an'anani davom ettirish, ayniqsa, ijodkorlar va harbiy xizmatchilar o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, yosh avlodni harbiy xizmat va sharaflil burchga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ular qalbidana yurga muhabbat, mardlik va jasorat tuyg'ularini yuksaltirish, bu borada samarali targ'ibot ishlarini olib borishda madaniyat va san'at ahli, yozuvchilari va shoirlar, dramaturg va rejissyorlarimizning hamkorligi nihoyatda muhim.

Mudofaa va Madaniyat vazirligi hamkorlikda harbiy xizmatchilar va yoshlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, jamiyatda milliy armiyamizga nisbatan faxr-iftixor tuyg'ularini yuksaltirish maqsadida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va loyihalarni amalga oshirmoqda.

Mana ikki yildirki, aholi va yoshlarni vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Vatan manzumi" adabiy-ma'rifiy kechalari poytaxtimiz va yurtimizning barcha hududida o'tkazib kelinmoqda. Bu yilgi tadbirlarda 20 mingga yaqin kishi, jumladan, yoshlar, harbiylar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Shuningdek, qator vazirlik va idoralar bilan birgalikda "Vatanparvarlik ruhidagi eng yaxshi videorolik", "Vatanparvarlik ruhidagi eng yaxshi qo'shiq" hamda "Vatanni madh etuvchi eng yaxshi she'r" tanlovini o'tkazish yuzasidan qo'shma loyihani amalga oshirishga kirishildi.

Ayni kunlarda "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlari ko'rik-tanlovi o'tkazilmoqda. Mazkur tanlov orqali yosh avlodda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirishga qaratilgan yangi qo'shiqlar yaratish hamda harbiy-vatanparvarlik mavzusida ijod qilib kelayotganlarni rag'batlantirish maqsad qilingan.

Ayniqsa, harbiy ijodkorlarning davlat tadbirlari, turli madaniy va ko'ngilochar tomoshalardagi faol ishtiroki yoshlarda vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, Qurolli Kuchlardan faxrlanish tuyg'usi jo'sh urishi va uning saflarida xizmat qilish istagini kuchaytib borishiga turki bo'layotganlarni alohida ta'kidlashni istardim. Yangi inshootda yaratilgan zamonaviy imkoniyatlar esa bu egru va xayrli ishning yanada keng quloch yo'yishida dasturulamal bo'lishiga ishonaman.



Salomatlik  
Sabog'i

Insanning bo'yi necha santimetr bo'lsa, shundan 100 ni ayirib tashlash kerak. Shunda me'yordagi vazn kelib chiqadi. Tabiat tomonidan berilgan barcha mahsulotni tanovul qilish mumkin. Faqat vaqtda, ketma-ket, tartib bilan.



YANGI O'ZBEKISTON

“ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti haftasiga 150 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi jismoniy faollik bilan shug'ullanishni tavsiya qilmoqda. Yoki 75 daqiqali kuchli jismoniy faollik ham buning o'rnini bosa oladi. Aks holda, kamharakatlilik infarkt, insult, qandli diabetning ikkinchi turi, ko'krak va yo'g'on ichak saratoni kabi kasalliklar rivojlanish xavfini oshiradi. ”

## SOG'LOM TURMUSH TARZIGA

TIBBIY MADANIYAT  
ORQALI ERISHISH MUMKIN

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shu yil 20-noyabrda yig'ilishida o'rtacha umr darajasini 78 yoshgacha yetkazish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish zarurligini qayd etdi. Shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtrish kabi masalalar bo'yicha hukumat alohida dasturlar ishlab chiqishi lozimligini ta'kidladi.

Kasalliklarning oldini olish, gipodinamiya — kamharakatlilikka qarshi ommaviy kurashish, aholi, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish salomatlik va uzoq umr ko'rishning muhim omillaridan.

Toshkent tibbiyot akademiyasi bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Nizom ERMATOV bilan suhbatimiz aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nomutanosib ovqatlanish bilan bog'liq ko'pgina kasalliklarning oldini olish, ortiqcha tana vazn va asoratlari natijasida yuzaga keladigan muammolarga barham berish haqida bo'ldi.

— Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugunning asosiy va dolzarb masalalaridan, — deydi Nizom Ermatov. — Mazkur yo'nalishni rivojlantirish aholi orasida kasallanish va o'lim, birinchi o'rinda, surunkali yuqumsiz xastalikka chalinishi ko'rsatkichining tizimli pasayishiga xizmat qiladi.

ortiqcha vaznga sabab bo'layotir. Yana bir omil ertalabki nonushta qilmaslik bilan bog'liq. Tadqiqotlarimizda maktab o'quvchilarining deyarli 30 foizi nonushta qilmasligi ma'lum bo'lgan. Bu hali ular orasida shakllanmagan,



qachondir yuzaga chiqadigan ortiqcha vazn muammosiga sharoit yaratadi. Vaqti keladi, bola 30-35 yoshga yetganida ortiqcha vazn to'play boshlaydi. Bugun semizlik muammosi maktab o'quvchilari orasida ham uchrarmoqda.

Hozirgi texnologik jarayonlarda tegirmondan o'tayotgan un tarkibidagi foydali xususiyatlar, vitamin va minerallar to'la saqlanmaydi. Shu bois, mamlakatimizda vitamin va minerallar bilan boyitilgan un iste'moli tavsiya qilingan.



Ortiqcha vaznga yana bir sabab — gipodinamiya, ya'ni harakatning kamayishi. Abu Ali ibn Sino "Harakatdagi inson davolanishga muhtoj emas", degan edi. Harakat nima beradi? Eng avvalo, hayot sifati oshadi. Stresslarni bartaraf etadi. Organizm holatini yaxshilab, umr davomiyligini uzaytiradi.

Texnologik taraqqiyot, mexanizatsiyalashgan jarayonlar, qo'l mehnati va harakat kamaygani ortiqcha vazn muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o'z navbatida, gipertoniya, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va boshqa xastalikka ham yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Insanning jismoniy holati salomatligini saqlash va mustahkamlashning eng muhim jihati. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada e'tiborga molik ishlar bajarilayotir. Ammo aholining katta qismi jismoniy tarbiyaning inson salomatligidagi ahamiyatini chuqur anglab yetgani yo'q.



Aksariyat oilalar oddiy ertalabki badantariya bilan shug'ullanmaydi. Ko'p qavatli uylarda yashayotgan yurtdoshlarimiz yo'proq liftidan foydalanishga moyil. Yovuz yurish mumkin bo'lgan kichik masofaga ham mashinada borish urfiga kirdi. Azaliy an'analimiz — ota-ona, qarindosh-urug', yaqinlarimizdan tez-tez xabar olib turish o'miga telefon orqali so'rashib qo'ya qolamiz. Bu ham qaysidir ma'noda harakatni cheklaydi, ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti haftasiga 150 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi jismoniy faollik bilan shug'ullanishni tavsiya qilmoqda. Yoki 75 daqiqali kuchli jismoniy faollik ham buning o'rnini bosa oladi. Aks holda, kamharakatlilik infarkt, insult, qandli diabetning ikkinchi turi, ko'krak va yo'g'on ichak saratoni kabi kasalliklar rivojlanish xavfini oshiradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Bugun aholi yashaydigan joylarda, yirik shaharlarda yugurish, velosiped yo'lakchalari, dam olish joylari kengaytirilmoqda. Lekin jismoniy tarbiya bilan shug'ullanayotgan aholini kam uchratasiz. Bu esa insanning salomatligiga munosabati va umuman, jamiyat madaniyati darajasini belgilaydi. Holbuki, odamlar salomatligi haqida qayg'urish, uni saqlab qolish va mustahkamlash haqida o'ylaydigan davr keldi. Zero, hayot sifati va davomiyligi insanning yashash tarziga — jismoniy faollik, ovqatlanish madaniyati va ruhiy-hissiy holatiga bog'liq ekanini chuqur anglash lozim. Ertalabki badantariya, muntazam sport bilan shug'ullanish vujud barkamoligini uchun zarur yuklamadir.

Yana bir muammo bu — kam uxlash. Uyali telefondan tartibsiz foydalanish, turli keraksiz seriallar va boshqa mediamahtulotlarni ko'rish natijasida asab ruhan zo'rliqishi mumkin. Bu vaznning oshishiga olib keladi.

— Muammoning yechimi nimada? — Ortiqcha vazn muammosining yechimi faqat sog'lom turmush tarziga rioya etishda. Biz, shifokorlar inson salomatligi uchun mas'ul emas, balki sababchimiz. Mas'ul — har bir insonning o'zi. Agar u to'g'ri ovqatlanish talablariga rioya qilsa, kechqurungi yog'li ovqatlar, shakar, oliy navli un mahsulotlari iste'molini kamaytirsa, ortiqcha vazn bezovta qilmaydi. Buni uddalasa bo'ladi. Organizmning ham yosh, salomatlik holati, ish sharoitiga bog'liq barcha talablari mavjud. Faqat unga rioya qilish kerak, xolos.

Semizlik xavfini kamaytirishga bolaning ona qonidagi davridan tug'ilganing ilk yillarigacha profilaktika choralarini ko'rish orqali erishish mumkin. Masalan, homiladorlik davrida vazn yig'ish me'yoriga amal qilish, bolani 6 oygacha faqat ona suti bilan oziqlantirish va bu jarayonni imkon qadar 2 yosh yoki undan ko'proqqa cho'zish, farzandni to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, yaxshi uxlashga odatlantirish, tarkibida shakar bo'lgan, yuqori kaloriyalikli mahsulotlar iste'molini kamaytirish shart.

Ko'plab nazariyalor bor. Masalan, insanning bo'yi necha santimetr bo'lsa, shundan 100 ni ayirib tashlash kerak. Shunda me'yordagi vazn kelib chiqadi. Tabiat tomonidan berilgan barcha mahsulotni tanovul qilish mumkin. Faqat vaqtda, ketma-ket, tartib bilan. Tartibsiz ovqatlanish inson keyinchalik qator kasalliklarga duchor bo'la boshlaydi.

ko'rish imkonini beradi. Sog'liq borasida bilimi yuqori mutaxassislar bilan kengashadi. Ehtimol, o'zida tushuncha bo'lmagan uchun har xil "dietolog"larga chuv tushayotgandir.

Bugun metabolik sindrom, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabet, jigar, buyrak kasalliklari, ortiqcha vazn bo'yicha juda ham ko'p targ'ibot qilinayapti. Bu istalgan ozdruvchi vositalardan foydalanish kerak, degani emas. Ayni paytda aholi orasida tibbiy bilimlarni shakllantirish eng samarali usuldir. Bilimi bor inson malakali shifokor bilan soxta mutaxassisni farqlay oladi va o'ylaymanki, unga turli "ozdruvchi" markazlar kerak bo'lmaydi.

— Soha oldida turgan muammolar nimadan iborat?

Bugun barcha tibbiyot institutlari va filiallarda tibbiy profilaktika yo'nalishi, ovqatlanish gigiyenasi, nutrisiologiya mutaxassislari tayyorlanmoqda. Ular tomonidan sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanish borasida targ'ibot ishlari bajarilayapti. Bu jarayonda ta'sirchanligi yuqori yangi texnologiyalarni qo'llashimiz kerak. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini baholash bo'yicha ayrim laboratoriyalarimizda yetishmovchiliklar kuzatiladi. Bular katta muammolarni yuzaga keltirmasa-da, yechim talab etadi. Aholiga sog'lom turmush tarzi bo'yicha ko'nikmalarini yetarlicha yetkazib bera olmayapmiz. Birlamchi qatlam, ya'ni mahallalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va oliy o'quv yurtlari, turli tashkilotlarda targ'ibotni kuchaytirish kerak. Ana shu jihatdan oqsayapmiz. Har qanday sharoitda ham inson o'zining salomatligiga o'zi mas'ul bo'lganini chuqur anglab yetishi lozim.

Lekin aholining umr davomiyligi yildan yilga yaxshilanib borayotganini ham inkor qila olmaymiz. Bu tizimdagi ishlar samara berayotganini bildiradi. Biz bugun turli kasalliklarning oldini olish haqida bong uryapmiz. Eng asosiy rejamiz ham aholining salomatligini himoyalash va mustahkamlash, bu boradagi muammolarga samarali yechim topishdir. Unutmangki, ortiqcha vazn, semizlik, metabolik sindrom, yurak-qon tomir xastaliklari, onkologik va boshqa kasalliklar profilaktikasi ovqatlanish bilan bog'liq.

Ana shu tushunchaning mohiyatini tushunib, kasalliklarning oldini olish borasidagi qator muammolarning yangi yechimlari, yangi ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish bugun oldimizda turgan muhim vazifalardan.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri  
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4448.  
39932 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy